



## QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

2024-YIL YANVAR-IYUN OYLARI



## QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI HAJMI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi – **4 793,3 mlrd. so'mni** shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **4 432,6 mlrd. so'mni**, o'rmon xo'jaligi – **277,5 mlrd. so'mni**, baliqchilik xo'jaligi – **83,2 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

### 2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmi

#### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi

Jami  
**4 793,3**  
mlrd. so'm  
o'sish sur'ati  
104,0 %

<u>Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar</u>	<u>Hajmi</u>	<u>4 432,6 mlrd. so'm</u>
<u>O'rmon xo'jaligi</u>	<u>Hajmi</u>	<u>277,5 mlrd. so'm</u>
<u>Baliqchilik xo'jaligi</u>	<u>Hajmi</u>	<u>83,2 mlrd. so'm</u>




O'rmon xo'jaligi



Baliqchilik xo'jaligi

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiylajmi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.


## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining o'sish sur'ati



- Dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda – **104,0 %** ni (2023-yilning yanvar-iyun oylari mos ravishda 2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan – **102,4 %**), o'rmon xo'jaligi – **103,7 %** ni (**110,3 %**), baliqchilik xo'jaligi – **103,2 %** ni (**108,6 %**) tashkil qildi.

## Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining **92,5 %** i – dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **91,6 %**), **5,8 %** i – o'rmon xo'jaligi (**6,2 %**), **1,7 %** i – baliqchilik xo'jaligi (**2,2 %**) hissasiga to'g'ri keldi.


## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi, (% da)



2024-yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini Qoraqalpog'iston Respublikasining hududlari kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulushi Amudaryo tumanida (**17,0 %**), To'rtko'l tumanida (**12,4 %**), Beruniy tumanida (**11,0 %**), Ellikqal'a tumanida (**10,0 %**), va Chimboy tumanida (**9,3 %**) qayd etildi. Aksincha ulushi kam hududlar Taxiatosh tumanida (**2,9 %**), Shumanay tumanida (**2,9 %**), Bo'zatov tumani (**2,2 %**), Mo'ynoq tumani (**1,6 %**) va Nukus shahrini (**0,7 %**) keltirib o'tish mumkin.



## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, (mlrd. so'm)



2024-yilning yanvar–iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (815,1 mlrd. so'm), To'rtko'l (593,1 mlrd. so'm), Beruniy (529,6 mlrd. so'm), Ellikqal'a (480,3 mlrd. so'm), Chimboy (446,7 mlrd. so'm), Qo'ng'iroq (331,3 mlrd. so'm) va Xo'jayli (275,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Taxtako'pir (199,1 mlrd. so'm), Kegeyli (185,0 mlrd. so'm), Nukus (155,3 mlrd. so'm) Qonliko'l (149,9 mlrd. so'm), Qorao'zak (142,2 mlrd. so'm), Taxiatosh (138,8 mlrd. so'm), Shumanay (138,1 mlrd. so'm) va Bo'zatov (103,9 mlrd. so'm) xajmlar bilan yakunladi. Aksincha kam hajmga ega hudud Mo'ynoq (76,9 mlrd. so'm) tumani va Nukus (32,2 mlrd. so'm) shaharni keltirib o'tish mumkin.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (% da)

Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'rsatkichidan (**104,0 %**) yuqori o'sish sur'atlari Qo'ng'irot (**109,5 %**) Nukus (**109,1 %**), Taxtako'pir (**108,2 %**), Taxiatush (**107,0 %**), Bo'zatov (**106,1 %**), Shumanay (**105,8 %**), To'rtko'l (**105,2 %**), Amudaryo (**104,2 %**) tumanlarida va Nukus (**107,9 %**) shaharida kuzatildi, Qonliko'l (**102,2 %**), Beruniy (**102,2 %**), Mo'ynoq (**101,9 %**), Qorao'zak (**101,9 %**), Ellikqal'a (**101,0 %**) va Xo'jayli (**100,1 %**) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **4 387,3 mlrd. so'mni** yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan **104,0 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – **1 261,3 mlrd. so'mni (108,7 %)**, chorvachilik mahsulotlari – **3 126,0 mlrd. so'mni (102,2 %)** tashkil qildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

Dehqonchilik mahsulotlari




28,7 %

Chorvachilik mahsulotlari




71,3 %

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiyligi hajmining 75,1 % – dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 21,2 % – fermer xo'jaliklariga, 3,7 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)



2024-yilning yanvar–iyun oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus (33,8 %) va To'rtko'l (28,5 %) tumanlarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Nukus (95,5 %) shaharda, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Amudaryo (8,0 %) tumanida qayd etildi. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Bo'zatov (2,4 %) tumanida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Nukus (58,7 %) tumanida, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Chimboy (0,1 %) tumanida qayd etildi.


## Aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlarda **2 386,1** ming so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,6 %** ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlardagi tarmoq umumiy hajmini hududimizning hisobot davridagi o'rtacha aholisi soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi doimiy aholisining o'rtacha soni 2024-yilning yanvar-iyunida **2 008,9** ming kishini tashkil etgan.

### Hududlar kesimida aholi jon boshiga hisoblangan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi, (ming so'm)



Hisobot davrida hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atini tahlil qilar ekanmiz:

Eng yuqori o'sish sur'atini qayd etgan hududlarga Qo'ng'iroq (**108,4 %**), Taxtako'pir (**108,3 %**), Nukus (**107,0 %**), Taxiatosh (**106,2 %**) tumanlari va Nukus shahrini (**106,3 %**) keltirib o'tishi lozim.

Aksincha o'sish sur'ati past hududlarga Qorao'zak (**101,2 %**), Mo'ynoq (**101,2 %**), Qonliko'l (**100,8 %**), Beruniy (**100,2 %**), Ellikqal'a (**99,1 %**) va Xo'jayli (**99,0 %**) tumanlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

## DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH

### Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlari hajmi, (mlrd. so'm)



### Qoraqalpog'iston Respublikasi 2024-yil yanvar-iyun



*Qishloq xo'jaligidagi  
mahsulotlarning umumiyligi  
hajmidagi ulushi*

28,7 %



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi **28,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (**304,6 mlrd. so'm**), To'rtko'l (**235,2 mlrd. so'm**) va Ellikqal'a (**141,5 mlrd. so'm**) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bo'zatov (**12,3 mlrd. so'm**), Mo'ynoq (**3,9 mlrd. so'm**) tumanlari va Nukus shaharni (**1,0 mlrd. so'm**) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Taxtako'pir (**149,3 %**), Qo'ng'irot (**141,2 %**), Nukus (**121,4 %**), Shumanay (**115,7 %**) va Taxiatosh (**115,2 %**) tumanlarida qayd etildi. Qorao'zak (**101,5 %**), Chimboy (**101,4 %**) va Ellikqal'a (**100,2 %**) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH


2024-yilning yanvar-iyunida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan **129,9** ming t. donli ekinlar (2023-yilning yanvar-iyuniga nisbatan **12,6 %** ga ko'p), **31,7** ming t. kartoshka (**11,6 %** ga ko'p), **52,5** ming t. sabzavotlar (**5,3 %** ga ko'p), **9,1** ming t. poliz (**17,7 %** ga ko'p), **11,5** ming t. meva va rezavorlar (**6,7 %** ga ko'p), **0,4** ming t. uzum (**4,8 %** ga ko'p) yetishtirildi.

### 2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
<b>Donli ekinlar</b>	129,9	112,6	101,7	112,1	14,8	100,3	13,5	134,2
<b>Sabzavotlar</b>	52,5	105,3	16,4	116,3	34,1	101,0	2,0	100,8
<b>Kartoshka</b>	31,7	111,6	10,5	141,1	21,1	101,0	0,1	149,5
<b>Poliz ekinlari</b>	9,1	117,7	5,4	134,5	3,6	100,1	0,1	80,9
<b>Meva va rezavorlar</b>	11,5	106,7	4,2	118,2	6,8	100,1	0,5	113,2
<b>Uzum</b>	0,4	104,8	0,1	120,8	0,2	101,2	0,1	85,1

# DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI


## 2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarida xo'jalik toifalarining ulushi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **78,3 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **11,4 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **10,3 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sabzavotlarning **31,3 %** i fermer xo'jaliklariga, **64,9 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **3,8 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, kartoshkaning **33,1 %** i fermer xo'jaliklariga, **66,5 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **0,4 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining **59,3 %** i fermer xo'jaliklariga, **40,0 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **0,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning **36,7 %** i fermer xo'jaliklariga, **58,8 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **4,5 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning **39,3 %** i fermer xo'jaliklariga, **45,3 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **15,4 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

## DONLI EKINLAR

### Hajmi, ming tonna




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **129,9** ming tonna donli ekinlar yetishtirildi.

Donli ekinlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, don ekinlari yetishtirishning eng katta hajmi – **101,7** ming tonna fermer xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda donli ekinlar yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **112,6 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **112,1 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **100,3 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **134,2 %** tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



### O'sish sur'ati



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan donli ekinlar ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **78,3 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **11,4 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **10,3 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA DON YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>129 914,0</b>	<b>100,0</b>	<b>112,6</b>
Nukus sh.	9,0	0,01	0,0
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	23 707,5	18,2	103,7
Beruniy	10 863,9	8,4	96,5
Bo'zatov	989,7	0,8	157,9
Qorao'zak	5 082,8	3,9	104,0
Kegeyli	5 095,0	3,9	112,2
Qo'ng'irot	8 523,3	6,6	171,2
Qonliko'l	8 220,4	6,3	113,4
Mo'ynoq	445,5	0,3	119,9
Nukus t.	10 435,0	8,0	133,3
Taxiatosh	3 047,6	2,3	144,2
Taxtako'pir	6 756,8	5,2	175,0
To'rtko'l	15 006,2	11,6	97,9
Xo'jayli	4 970,2	3,8	113,9
Chimboy	9 016,0	6,9	103,4
Shumanay	6 458,7	5,0	125,4
Ellikqal'a	11 286,4	8,7	100,0

## Donli ekinlar




Donli ekinlarini yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtaida pesh-qadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, donli ekinlari umumiylajmidagi ulushi **18,2 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush To'rtko'l (**11,6 %**), Ellikqal'a (**8,7 %**), Beruniy (**8,4 %**), Nukus (**8,0 %**) va Chimboy (**6,9 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiylajmidagi past ulush, Mo'ynoq (**0,3 %**), Bo'zatov (**0,8 %**) tumanlarida va Nukus (**0,01 %**) shahrida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Taxtako'pir (**175,0 %**), Qo'ng'irot (**171,2 %**), Bo'zatov (**157,9 %**), Taxiatosh (**144,2 %**) va Nukus (**133,3 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi To'rtko'l (**97,9 %**) va Beruniy (**96,5 %**) tumanlarida kuzatish mumkin.

# SABZAVOTLAR

Hajmi, ming tonna




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda sabzavot yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **105,3 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarda **16,3 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda **1,0 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **0,8 %** o'sish qayd etildi.


2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **52,5** ming tonna sabzavot yetishtirildi.

Sabzavotlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning eng katta hajmi – **34,1** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarda qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan sabzavot ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning **31,3 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **64,9 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **3,8 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O’sish sur’ati, % da
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>52 522,0</b>	<b>100,0</b>	<b>105,3</b>
Nukus sh.	95,6	0,2	113,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	15 542,2	29,6	106,0
Beruniy	4 908,3	9,3	105,4
Bo‘zatov	261,3	0,5	101,3
Qorao‘zak	1 166,5	2,2	100,7
Kegeyli	862,3	1,6	101,9
Qo‘ng‘iroq	1 259,2	2,4	102,5
Qonliko‘l	593,8	1,1	116,9
Mo‘ynoq	87,8	0,2	102,1
Nukus t.	1 264,6	2,4	102,9
Taxiatosh	1 043,6	2,0	100,9
Taxtako‘pir	504,0	1,0	105,5
To‘rtko‘l	14 182,3	27,0	110,7
Xo‘jayli	1 780,4	3,4	91,7
Chimboy	1 177,5	2,2	102,2
Shumanay	1 420,2	2,7	101,9
Ellikqal‘a	6 372,4	12,1	100,6

## Sabzavotlar




Sabzavot yetish-tirish bo‘yicha hududlar o‘rtasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, sabzavot ekinlari umumiyligi hajmidagi ulushi **29,6 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush To‘rtko‘l (**27,0 %**), Ellikqal‘a (**12,1 %**), Beruniy (**9,3 %**), Xo‘jayli (**3,4 %**), va Shumanay (**2,7 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiyligi hajmidagi past ulush, Nukus (**0,2 %**) shahrida va Mo‘ynoq (**0,2 %**) tumanida kuzatildi.

Yuqori o’sish sur’atlari Nukus shahrida (**113,8 %**), Qonliko‘l (**116,9 %**), To‘rtko‘l (**110,7 %**) va Amudaryo (**106,0 %**) tumanlarida qayd etildi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o’sish sur’atlari pasayishi Xo‘jayli (**91,7 %**) tumanida kuzatish mumkin.

# KARTOSHKA

## Hajmi, ming tonna




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **31,7** ming tonna kartoshka yetishtirildi.

Kartoshka yetishtirish ko'satkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi – **21,1** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda kartoshka yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **111,6 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan ko'ssatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **41,1 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **1,0 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **49,5 %** o'sish qayd etildi.

## O'sish sur'ati



## Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan kartoshka ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka yetishtirishning **33,1 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **66,5 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **0,4 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA KARTOSHKALAR YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>31 709,0</b>	<b>100,0</b>	<b>111,6</b>
Nukus sh.	10,7	0,03	104,9
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	13 152,2	41,5	102,9
Beruniy	3 516,2	11,1	109,7
Bo'zatov	162,2	0,5	108,9
Qorao'zak	149,4	0,5	106,0
Kegeyli	183,8	0,6	101,8
Qo'ng'iroq	199,7	0,6	147,9
Qonliko'l	64,8	0,2	106,2
Mo'ynoq	-	-	-
Nukus t.	347,0	1,1	101,4
Taxiatosh	902,5	2,8	100,5
Taxtako'pir	316,8	1,0	102,5
To'rtko'l	8 827,6	27,8	137,8
Xo'jayli	842,1	2,7	100,2
Chimboy	398,7	1,3	104,6
Shumanay	282,8	0,9	102,8
Ellikqal'a	2 352,5	7,4	102,7

## Kartoshka




Kartoshka yetish-tirish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, kartoshka ekinlari umumiyligi hajmidagi ulushi **41,5 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush To'rtko'l (**27,8 %**), Beruniy (**11,1 %**), Ellikqal'a (**7,4 %**), Taxiatosh (**2,8 %**) va Xo'jayli (**2,7 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmidagi past ulush, Bo'zatov (**0,5 %**) tumanida, Qonliko'l (**0,2 %**) tumanida va Nukus (**0,03 %**) sharida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Qo'ng'iroq (**147,9 %**), To'rtko'l (**137,8 %**), Beruniy (**109,7 %**), Bo'zatov (**108,9 %**), Qonliko'l (**106,2 %**), Qorao'zak (**106,0 %**) tumanlarida va Nukus (**104,9 %**) shahrida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Xo'jayli (**100,2 %**) tumanida kuzatish mumkin.

# POLIZ EKLNLARI

## Hajmi, ming tonna




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **9,1** ming tonna poliz ekinlari yetishtirildi.

Poliz yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz yetishtirishning eng katta hajmi – **5,4** ming tonna fermer xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda poliz ekinlari yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **117,7 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **134,5 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **100,1 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **80,9 %** tashkil etdi.

## O'sish sur'ati



## Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan poliz ekinlari ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz yetishtirishning **59,3 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **40,0 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **0,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA POLIZ EKINLARI YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>9 132,0</b>	<b>100,0</b>	<b>117,7</b>
Nukus sh.	21,5	0,2	102,9
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	2 075,4	22,7	121,1
Beruniy	938,5	10,3	131,6
Bo'zatov	102,7	1,1	100,7
Qorao'zak	202,4	2,2	100,2
Kegeyli	140,1	1,5	100,5
Qo'ng'irot	115,3	1,3	130,1
Qonliko'l	248,1	2,7	109,1
Mo'ynoq	75,2	0,8	100,3
Nukus t.	227,9	2,5	100,4
Taxiatosh	358,8	3,9	100,8
Taxtako'pir	284,9	3,1	101,4
To'rtko'l	1 976,4	21,6	147,6
Xo'jayli	55,5	0,6	129,1
Chimboy	40,3	0,4	103,9
Shumanay	103,0	1,1	100,5
Ellikqal'a	2 166,0	23,7	103,6


## Poliz ekinlari

Polizlar yetishtirish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Ellikqal'a tumani egalladi. Uning, poliz ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **23,7 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Amudaryo (**22,7 %**), To'rtko'l (**21,6 %**), Beruniy (**10,3 %**) Taxiatush (**3,9 %**) va Taxtako'pir (**3,1 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmidagi past ulush, Chimboy (**0,4 %**), tumanida va Nukus (**0,2 %**) shahrida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari To'rtko'l (**147,6**), Beruniy (**131,6 %**), Qo'ng'irot (**130,1 %**), Xo'jayli (**129,1 %**) va Amudaryo (**121,1 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Mo'ynoq (**100,3 %**) va Qorao'zak (**100,2 %**) tumanlarida kuzatish mumkin.

## MEVA VA REZOVORLAR




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan 11,5 ming tonna meva va rezovorlar yetishtirildi.

Meva va rezovorlar yetishtirish ko'satkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva yetishtirishning eng katta hajmi – 6,8 ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda meva va rezovorlar yetishtirish 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **106,7 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan ko'satib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **18,2 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **0,1 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **13,2 %** o'sish qayd etildi.

O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan meva va rezovorlar ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva va rezovorlar yetishtirishning **36,7 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **58,8 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **4,5 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA MEVA VA REZOVORLAR YETISHTIRISH



<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>Hajmi, tonna</b>	<b>Ulushi, % da</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
Nukus sh.	17,4	0,2	103,6
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	2 452,2	21,3	103,8
Beruniy	1 871,7	16,3	107,7
Bo'zatov	433,5	3,8	100,8
Qorao'zak	182,2	1,6	100,4
Kegeyli	616,8	5,4	101,8
Qo'ng'iroq	270,2	2,3	101,7
Qonliko'l	250,5	2,2	139,0
Mo'ynoq	75,2	0,7	104,0
Nukus t.	238,8	2,1	100,3
Taxiatosh	252,3	2,2	102,9
Taxtako'pir	191,4	1,7	104,6
To'rtko'l	2 005,2	17,4	121,2
Xo'jayli	332,0	2,9	104,9
Chimboy	275,6	2,4	101,7
Shumanay	130,1	1,1	100,9
Ellikqal'a	1 920,9	16,7	100,9


## Meva va rezovorlar



Meva va rezovorlar yetishtirish bo'yicha hududlar o'tasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, meva ekinlari umumiyligi hajmidagi ulushi **21,3 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush To'rtko'l (**17,4 %**), Ellikqal'a (**16,7 %**), Beruniy (**16,3 %**) Kegeyli (**5,4 %**) va Bo'zatov (**3,8 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmidagi past ulush, Mo'ynoq (**0,7 %**) tumanida va Nukus shahrida (**0,2 %**) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Qonliko'l (**139,0**), To'rtko'l (**121,2 %**), Beruniy (**107,7 %**), Xo'jayli (**104,9 %**) va Taxtako'pir (**104,6 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati Nukus (**100,3 %**) tumanida boshqalarga nisbatan pastligini kuzatish mumkin.




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **369** tonna uzum yetishtirildi.

Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum yetishtirishning eng katta hajmi – **167** tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda uzum yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **104,8 %** ni tashkil etdi.


2023-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarda **120,8 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda **101,2 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **85,1 %** tashkil etdi.

### O'sish sur'ati



### Ishlab chiqarilgan mahsulotning

#### xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)




2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan uzum ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum yetishtirishning **39,3 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **45,3 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **15,4 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA UZUM YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	369,0	100,0	104,8
Nukus sh.	-	-	-
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	149,2	40,4	109,1
Beruniy	0,7	0,2	11,7
Bo'zatov	6,4	1,7	101,6
Qorao'zak	12,9	3,5	108,4
Kegeyli	12,9	3,5	104,9
Qo'ng'iroq	9,0	2,4	102,3
Qonliko'l	2,4	0,7	104,3
Mo'ynoq	-	-	-
Nukus t.	19,8	5,4	102,1
Taxiatosh	15,0	4,1	125,0
Taxtako'pir	1,0	0,3	100,0
To'rtko'l	59,3	16,1	100,9
Xo'jayli	17,3	4,7	100,0
Chimboy	2,3	0,6	100,0
Shumanay	12,2	3,3	106,1
Ellikqal'a	48,6	13,2	107,0

## Uzum




Uzum yetishtirish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Amudaryo tumani egalladi. Uning, uzum ekinlari umumiylajmidagi ulushi **40,4 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush To'rtko'l (**16,1 %**), Ellikqal'a (**13,2 %**), Nukus (**5,4 %**) Xo'jayli (**4,7 %**) va Taxiatosh (**4,1 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiylajmidagi past ulush, Taxtako'pir (**0,3 %**) va Beruniy (**0,2 %**) tumanlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Taxiatosh (**125,0 %**), Amudaryo (**109,1 %**), Qorao'zak (**108,4 %**), Ellikqal'a (**107,0 %**) va Shumanay (**106,1 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Beruniy (**11,7 %**) tumanida kuzatish mumkin.

# CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

## Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi, (mlrd. so'm)



## Qoraqalpog'iston Respublikasi 2024-yil yanvar-iyun



71,3 %



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 71,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Amudaryo (**432,9** mlrd. so'm), Beruniy (**388,0** mlrd. so'm) va To'rtko'l (**338,8** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Nukus shahar (**19,2** mlrd. so'm) va Mo'ynoq (**50,3** mlrd. so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Nukus (**107,5 %**) shahrida, Taxiatosh (**105,3 %**), Bo'zatov (**104,9 %**) va Qo'ng'irot (**104,8 %**) tumanlarida qayd etildi. Xo'jayli (**99,7 %**) va Qonliko'l (**98,4 %**) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


## 2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Barcha toifadagi xo'jaliklar	shu jumladan:							
		fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar			
		ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda)	43,0	102,6	1,8	100,1	40,4	102,4	0,8	116,0	
Sut	140,5	100,9	13,1	92,5	125,6	102,3	1,8	77,3	
Tuxum (mln. dona)	186,3	101,4	12,6	100,4	158,5	100,8	15,2	108,9	
Jun, tonna	0,9	102,9	0,1	108,3	0,7	101,9	0,018	105,9	
Qorako'l teri, (ming. dona)	76,2	101,6	3,6	106,3	71,7	101,5	0,9	97,2	
Baliq	4,0	102,2	1,8	100,2	0,6	105,9	1,6	103,2	

2024-yilning yanvar-iyunida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda **43,0** ming tonna go'sht, **140,5** ming tonna sut, **186,3** mln. dona tuxum, **886** tonna jun, **76,2** ming dona qorako'l teri va **4 026** tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan – **102,6 %** ni, sog'ib olingan sut – **100,9 %** ni, olingan tuxum – **101,4 %** ni, qirqib olingan jun – **102,9 %** olingan qorako'l teri – **101,6 %** ni hamda ovlangan baliqlar – **102,2 %** ni tashkil qildi.

## 2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar



